

## **SERKEYEV BAXTIYAR BAZARBAYEVICHNING TASVIRIY SAN'AT SOHASIDAGI FAOLIYATI**

***Madrimova To'xtajon***

*O'zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali "umumiy kasbiy va social-gumanitar fanlar" kafedrasiga "Musiqashunoslik" mutaxassisligi 2-kurs talabasi*  
*Ilmiy rahbar: Kamalova Gulmaryam Maksedullaevna*

**Annotatsiya:** Mazkur maqolada Serkeyev Baxtiyar Bazarbayevichning tasviriy san'at sohasidagi faoliyati, yurtimiz va xalqaro miqyosdagi yutuqlari, ko'rik-tanlovlardagi muvaffaqiyatlari, turli tashkilotlar tomonidan berilgan faxriy yorliqlari va diplomlari haqida batafsil yoritilgan. Shuningdek, uning teatr sahna bezaklaridagi ishtiroki, individual ko'rgazmalari, ilmiy-amaliy konferensiyalardagi faoliyati va yoshlar orasidagi targ'ibot ishlari haqida ham ma'lumot berilgan. Serkeyevning san'atga bo'lgan sadoqati va mehnatsevarligi uni jamiyatda hurmatga sazovor ijodkor sifatida ko'rsatadi.

**Kalit so'zlar:** Serkeyev Baxtiyar, tasviriy san'at, ko'rgazma, diplom, teatr, san'at festivali, yoshlar, ijod, mukofot.

**Аннотация:** В статье подробно рассматривается творческая деятельность Серкеева Бахтияра Базарбаевича в области изобразительного искусства. Освещаются его достижения как на республиканском, так и на международном уровне, участие в конкурсах и фестивалях, награды и почетные грамоты. Также уделено внимание его вкладу в оформление сценических постановок, персональные выставки, участие в научно-практических конференциях и пропаганде искусства среди молодежи. Его трудолюбие и преданность искусству делают его уважаемой фигурой в культурной среде.

**Ключевые слова:** Бахтияр Серкеев, изобразительное искусство, выставка, диплом, театр, фестиваль, молодежь, творчество, награда.

**Annotation:** This article provides a detailed overview of the creative career of Bakhtiyor Bazarbaiyevich Serkeyev in the field of visual arts. It highlights his achievements on both national and international levels, participation in contests and festivals, as well as the numerous awards and honorary diplomas he has received. His contributions to stage design, personal exhibitions, involvement in scientific-practical conferences, and art promotion among the youth are also discussed. Serkeyev's dedication and hard work have established him as a respected artist within the community.

**Keywords:** Bakhtiyor Serkeyev, visual art, exhibition, diploma, theatre, art festival, youth, creativity, award.

Serikeyev Bakhtiyor Bazarbayevich – San’atga bag‘ishlangan hayoti davomida san’at inson qalbining oynasi, tuyg‘ularning so‘zsiz ifodasi va abadiyat sari yo‘llangan sadoqatligini bilardi. Aynan shu tuyg‘u Serikeyev Bakhtiyor Bazarbayevichni bolaligidan o‘ziga jalb etdi, hayot yo‘lini san’at bilan bog‘lashiga sabab bo‘ldi. Serikeyev Bakhtiyor Bazarbayevich, 1990-yil 30-iyunda Nukus shahrida dunyoga keldi. Bolaligidan san’atga bo‘lgan qiziqishi yangi izlanishlarga ilhomlantirar, har bir chizgan suratlarida o‘z dunyosini aks ettirishga intilardi. O‘qishga va san’atga bo‘lgan qiziqishlari maktab tamon olib borardi. 1997-yilda 18-sonli umumta’lim maktabiga o‘qishga bordi. Maktab yillarida rasm chizishga bo‘lgan qiziqishi va mehri yanada kuchaydi va bu muhabbat uni Qoraqalpog‘iston Tasviriy va amaliy san’at litsey-internatiga yetakladi. Bu yerda san’at sirlarini yanada chuqurroq o‘rganib, qobiliyatlarini rivojlantirdi. Ijodiy yo‘llarida ilk qadamlari yuksak marralarga, olib bordi. U san’at shunchaki hunar emas, balki inson qalbining eng nozik iplarini chertuvchi sehrli olamligi bilgan. O‘qish davomida ko‘plab ijodiy tanlovlarda ishtirok etdi va yetakchi o‘rnlarni egallab, san’at olamida o‘z o‘rnini mustahkamlash sari dadil qadam tashlardi. 2005-2006-yillarda O‘zbekiston Badiiy akademiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limi tomonidan tashkil etilgan ko‘rgazmalar saroyida Serikeyev Bakhtiyor shaxsiy ko‘rgazmasini o‘tkazdi. Shu vaqtdu u Bu men uchun katta tajriba maktabi bo‘ldi” deb o‘z fikrini bildirgan. Bakhtiyor 2006-yilda Nukus san’at kollejiga o‘qishga qabul qilinadi. Rassomchilik sohasida bilimlarimni yanada chuqurlashtirish maqsadida 2013-yilda Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn institutining Dastgohli rangtasvir yo‘nalishida tahsilni davom ettirdi. Bu davr uning ijodida muhim burilish nuqtasi bo‘ldi. Endi Bakhtiyor nafaqat mahalliy, balki xalqaro ko‘rgazmalarning ham faol ishtirokchisiga aylangandi. 2010-2013-yillarda Tasviriy san’at haftaligida qatnashib, turli yo‘nalishlarda sovrindor bo‘ldi. 2011-yilda "Ekologiya va yoshlar" ko‘rgazmasida 1-o‘rin, "Buyuk va muqaddassan, mustaqil Vatan!" tanlovida 2-o‘rinni egalladi. 2012-yilda "Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi" Respublika fan olimpiadasida 3-o‘ringa sazovor bo‘ldi. 2012-yilda BMT tomonidan o‘tkazilgan "Tinchlik kuni" tanlovida ishtirok etib, sertifikat bilan taqdirlandi. 2013-yilda esa "Ustoz va shogird" tanlovining g‘olibi bo‘ldi va "MRDI Faxri – 2013" unvoniga sazovor bo‘ldi. 2013-yilda institutni imtiyozli diplom bilan tugatib, bilim va mahoratlarini yanada oshirish maqsadida shu institutning magistratura bosqichiga o‘qishga kirdi Magistratura davrida san’atning yanada chuqur qirralarini o‘rgana boshladi va ijodiy faoliyatini yangi bosqichga ko‘taradi. Xalqaro sahnaga chiqib 2013-yilda Toshkent shahrida o‘tkazilgan "Biyennale" xalqaro ko‘rgazmasida ishtirok etib “Mening dardim, mening umidim” nomli Orol mavzusiga bag‘ishlangan to‘rt qismli kartinasni 2013-yilda EKOSAN Ekologiya va Salomatlik Xalqaro Jamg‘armasi tomonidan o‘tkazilgan “Ustoz va shogird” tanlovida g‘oliblikni qo‘lga kiritib, diplom bilan taqdirlangandi. Ushbu kartinalari orqali rassom Orol dengizining qaytishiga bo‘lgan umidni uyg‘otishga harakat qilgan. Ushbu asarlar orqali u xalqimizning an’anaviy hayot tarzi, urf-odatlari va

quvonchli lahzalarini o‘ziga xos badiiy talqin orqali tasvirlagan. Xalqaro tan olinishi va yutuqlari Baxtiyarning asarlari O‘zbekiston va Qoraqalpog‘iston Respublikasi hududidagina emas, balki xorijiy mamlakatlarda ham san’at ixlosmandlarini hayratda qoldirmoqda. Uning kartinalari quyidagi davlatlarning muzeylari va shaxsiy kolleksiyalarida saqlanmoqda: Qozog‘iston – Ostona shahridagi Qozog‘iston davlat muzeyi Rossiya Turkiya Ozarbayjon Ispaniya Janubiy Koreya Shri-Lanka Malayziya Filippin asrlari q Uning ijodi san’atshunoslar tomonidan yuqori baholanib, qoraqalpoq rangtasvir san’atiga yangicha ruh olib kirayotgan ijodkor sifatida e’tirof etilmoqda. 2014-yil dekabr oyida "San’at" jurnali tashabbusi bilan Toshkent fotosuratlar uyida shaxsiy ko‘rgazmalari tashkil etildi. 2015-yilda O‘zbekiston Tasviriy san’at galereyasida bo‘lib o‘tgan "Rangtasvir avtoportreti – 21x21" ko‘rgazmasida qatnashib,. shu yil Turkiyaning Kalkan, Kach va Kekova shaharlarida o‘tkazilgan xalqaro simpoziumda ishtirok etib, ijodiy tajribalarini yanada boyitdi. 2015-yilda Moskva Xalqaro Tasviriy san’at salonida tashkil etilgan "Insoniyat va dunyo" ko‘rgazmasida ishtirok etdi 2015-2017-yillar davomida ijodiy faoliyatini rivojlantirish va san’atga bo‘lgan qarashlarini yanada kengaytirish maqsadida Rossiya, Malayziya, Filippin, Tailand, Laos, Kambodja va Shri-Lanka davlatlarining muzey va galereyalarida bo‘lib, o‘sha hududlardagi san’at yo‘nalishlari bilan tanishdi. Hozirda eksperimental rangtasvir yo‘nalishida izlanishlar olib borib, ijodiy faoliyatlarni yangi bosqichga ko‘tarish ustida ishlamoqda. San’at doimiy izlanish va yuksalish talab etadigan soha bo‘lib, men har doim yangi g‘oyalar, yangicha uslublarni sinab ko‘rishga intilaman deya Bakhtiyor o‘z fikirlarni har doim bayon qilib kelgan. Bugungi ijodiy faoliyati 2017-yil sentyabr oyidan boshlab Berdaq nomidagi Qoraqalpoq Davlat akademik musiqali teatrda rassom sifatida ish boshladi . Shu yilning noyabr oyida O‘zbekiston Badiiy akademiyasining Qoraqalpog‘iston Respublikasi bo‘limida Bosh ilmiy kotib lavozimida ish boshlashgan Shuningdek, peyzaj, natyurmort va portret janrlarida ham o‘ziga xos uslubini shakllantirgan. Har bir kartina tomoshabinni o‘yga toldiradigan chuqur ma’noga ega bo‘lib, ranglar uyg‘unligi va ifoda uslubi bilan ajralib turadi. Baxtiyar bugungi kunga qadar 100 dan ortiq asar yaratib, uning kartinalari san’at ixlosmandlari va mutaxassislar tomonidan yuqori baholanib kelmoqda. San’atga bo‘lgan fidoyiligi, ijodiy izlanishlari va yangicha yondashuvi bilan milliy rangtasvir san’atini rivojlantirishga o‘zining munosib hissasini qo‘shmoqda. U keljakda ham san’at olamida yorqin iz qoldirishga intilib, yangi asarlar yaratishda davom etmoqda.

### Foydalangan adabiyotlar:

1. Kamalova G. JAMIL CHARSHEMOVТИН “POPURRI” SHÍGARMASÍNÍН ÓZGESHELIGI //Вестник музыки и искусства. – 2024. – Т. 1. – №. 4. – С. 52-57.
2. Kamalova, . G., & Dauletbaeva , G. (2024). DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDIÑ ÁHMIYETI. Вестник музыки и искусства, 1(4), 89–94. извлечено от <https://science.uzdknf.uz/index.php/science/article/view/231>

3. Dauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 880-884.
4. Kamalova G. JAMIL CHARSHEMOVATÍN “POPURRI” SHÍGARMASÍNÍN ÓZGESHELIGI //Вестник музыки и искусства. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 52-57.
5. Kamalova, . G., & Dauletbaeva , G. (2024). DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDIÍN ÁHMIYETI. Вестник музыки и искусства, 1(4), 89–94. извлечено от <https://science.uzdknf.uz/index.php/science/article/view/231>
6. Kamalova G. QÁLEMI ÓTKIR KOMPOZITOR (D. Djańabaeva dóretiwshilik joli) //Вестник музыки и искусства. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 37-39.
7. Kamalova G.M. Kompozitor Dariko Djanabaeva Nókis, “Ilimpaz”. 2023. – 86-bet  
Dauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR //Modern Science and Research. – 2023. – T. 2. – №. 10. – C. 880-884.